



O'ZBEKISTONDAGI EKOTURISTIK JOYLAR

Po'latov Sardor

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: *Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chugurlashtirish jarayonida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mavjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilgor xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda, asosiy e'tibor O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirish, buning uchun mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "... bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sosial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma ob'ektlarini rivojlantrishga, transport va kommunikasiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir".*

Kalit so'zlar: *cho'l(sahro) zonası, sug'oriladigan tekislik (antrogen) zona, tog'oldi-tog' zonası.*

Ma'lumki, dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi turizm sohasini rivojlantirish orqali o'z milliy iqtisodiyotini taraqqiy ettirmoqda. Hozirgi kunda, turizm dunyo bo'yicha eng ko'p daromad keltiradigan sohalardan biriga aylangan bo'lib, avtomobilsozlik va neftni qayta ishslash sanoatidan keyingi o'rinda turadi. Bundan tashqari, turizm mamlakatlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yanada barqarorlashtirishning eng muhim hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning turizm sohasida etarlicha darajada va har qanday qorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Prezidentimiz Islom Karimov Singapur Respublikasiga Davlat tashrifi arafasida shu



mamlakatning markaziy nashrlaridan biri “TODAY” gazetasi muxbirining savollariga bergen javoblarida O‘zbekistonda ekologik turizmning katta salohiyatga ega ekanligini ta’kidlagan holda, bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar haqida quyidagilarni keltiradilar: “Go‘zal geografik va tabiiy sharoitlar Respublika hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g‘oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog‘li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmularida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo‘nalishi – yirik qo‘riqxonalar va bog‘lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda. Turizm infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda, yangi mehmonxonalar qurildi, yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil etildi. Ular xalqaro sayyohlar uchun keng ko‘lamli xizmatlarni taklif etishga tayyor».”- deb ta’kidlagan edi. Bu kabi omillar respublikamizda ham ekologik turizm rivojlanishini yaxshilash va uning tashkiliy mexanizmini yaratishga asos bo‘lmoqda.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni hududiy tashkil etish ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi va amaliyatiga asoslanadi. Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish doirasida mintaqalar va hududlar xo‘jaligining ixtisoslashishi va majmua rivojlanishi masalalari bir qatorda xo‘jalik va tabiatning konkret hududlarda o‘zaro ta’sirining maqsadga muvofiq shakllari ham belgilanadi.

Shu sababdan mintaqalar tabiatidan foydalanishning hududiy xususiyatlarini faqat ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish orqali aniqlash mumkin. Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatda tabiiy – ekologik imkoniyatni har tomonlama hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyotini hududiy rivojlanishini takomillashtirishga va mintaqalarning tabiiy resurs imkoniyatidan unimli foydalanishni hududiy boshqarishni tashkil etishga xizmat qiladi. Mintaqalarning ma’lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim omildir.

Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiy rayonlashtirishning ixtisoslashgan yo‘nalishi va turi bo‘lib, u ikkita asosiy tamoyilga asoslanib amalga oshiriladi:

1). Hududiy mehnat taqsimoti;

2). Ushbu hududlar ishlab chiqarish kuchlarining tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatish darajasi.

Hududiy mehnat taqsimoti rayonlashtirishning iqtisodiy mexanizmi, rayonlashtirishning omili hisoblanadi.

Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish ikki xil yo‘nalishda integral rayonlashtirish va tarmoq rayonlashtirishga bo‘linadi. Shuningdek, maxsus ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish ham mavjud bo‘lib, ular ekotizimlarga antropogen va texnogen ta’sirning hududiy farqlarini ko‘rsatadi va ularning tizimi shunga mos keladigan tabiat muhofazasi tizimini amalga oshirishni taqozo etadi.

Rayonlashtirish tizimi ekologik-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda muhim rolb o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistonda yangi mintaqaviy

ekologik siyosat shakllanmoqda. SHu munosabat Bilan har bir rayonning ekologik-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilash va quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilishi kerak:

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, tizim, investisiya, moliya, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda rayonlarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini to'la hisobga olish;

Respublikaning maxsus mintaqaviy ekologik dasturini ishlab chiqish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda ekologik-iqtisodiy rayonlarni rivojlantirishning strategik vazifalari quyidagilar:

antropogen ta'sir bosimi kuchli rayonlarda, birinchi navbatda sug'oriladigan tekislik zonada iqtisodiyotni ekologik talablarga moslashtirish asosida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish;

tog' zonasida ekologik-iqtisodiy vaziyatni stabillashtirish va iqtisodiyotni ushbu zona xususiyatlariga moslashtirish;

mamlakat rayonlarida hududiy ishlab chiqarish majmualari, sanoat tugunlarini barpo etish asosida mineral xomashyo resurslaridan majmua foydalanish va ekologik standartlarga amal qilish.

O'zbekistonning ekologik iqtisodiy rayonlashtirishning asosini mamlakatni 3 ta yirik makrozonaga va 8 ta ekologik – iqtisodiy rayonga bo'lish tashkil etadi. Makrozonalar mamlakat xalq xo'jaligi majmuasining hududiy – zonal, ekologik – iqtisodiy xususiyatlarini umumiylah qilish va muammolarini aniqlash, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish istiqbollarini belgilash uchun ajratiladi. Makrozonalar bir-birlaridan tabiiy-ekologik xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlari joylashishining o'ziga xosligini, tabiiy resurs imkoniyatidan foydalanish va hududlarni xo'jalik o'zlashtirilishi darajasi bo'yicha tubdan farq qiladi. O'zbekiston hudud 3 ta yirik makroxududga bo'linadi:

cho'l(sahro) zonas;

sug'oriladigan tekislik (antrogen) zona;

tog'oldi-tog' zonas.

Mamlakatning hozirgi ekologik-iqtisodiy rayonlari tizimi asosan O'zbekistonning asosiy iqtisodiy rayonlari tizimiga mos keladi. Ekologik-iqtisodiy rayonlarning iqtisodiy rayonlardan asosiy farqi bunda ishlab chiqarish kuchlarining tabiiy muhitga ta'sirining hududiy farqlari asosiy rayonlashtirish mezoni ekanlidigadir. Har bir ekologik-iqtisodiy rayon ishlab chiqarish kuchlarini tabiatga ta'siri darajasi bo'yicha boshqalaridan farq qiladi. O'zbekistonda quyidagi ekologik – iqtisodiy rayon shakllangan:

Toshkent (Toshkent shahri, Toshkent viloyati);

Farg'ona (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari);

Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);

Samarqand-Zarafshon (Samarqand viloyati);

Buxoro-Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari);

Qashqadaryo (Qashqadaryo viloyati);

Surxondaryo (Surxondaryo viloyati);

Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi).

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo‘mitasining mataxassislari O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari xaritasini ishlab chiqishgan. Xaritaga muvofiq butun mamlakat hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Har bir ekoturistik rayonga ekoturistik hudud deb ham qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarkul, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg‘ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari, kiritilgan. O‘zbekistondagi har bir rayon o‘zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi. Masalan: Ustyurt ekoturistik rayonini oladigan bo‘lsak, u O‘zbekistonning shimoliy-g‘arbi-Qoraqalpog‘istonda joylashgan plato bo‘lib, uning umumiyligi maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo‘lgan juda katta-1000 km² li tuzli Borsakelmas sho‘rxoxi bilan mashhur. O‘simgilik dunyosi deyarli yo‘q, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo‘ng‘iroq soda zavodi aynan ana shu xom ashyo hisobiga ishlaydi.

Neolit davridan qolgan “Ustyurt makoni” ham noyobdir. Unda 60 ga yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy ob’ektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy, ham ekoturistik ahamiyatga moyil “Tempa” makoni bo‘lib, undan Xorazm arxeologiya ekspedesiyasi mehnat va ov qurollarini topgan.

Amudaryo ekoturistik rayoni. Amudaryoning o‘zaniga yaqin sohillardagi to‘qayzorlardan iborat bo‘lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli, noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o‘ng sohilida to‘qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto‘qay qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bularidan tashqari Qizilqumning g‘arbiy qismida, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog‘ jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog‘lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O‘zbekistonning ko‘hna shaharlardan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Bunday joylarda ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borishni tavsiya qilish mumkin.

Nurota rayoni o‘zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo‘lgan Nurota tog‘ yong‘oqzor-meva qo‘riqxonasi mavjud. Bu qo‘riqxonaga “Ekosan” qoshidagi “Ekosantur” firmasi tomonidan ko‘plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog‘ning janubiy yon bag‘rida joylashgan shamol ta’sirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli “Sanjigumon”, “Koriz qoldiqlar” kabi tabiat yodgorliklari ekoturizmning muhim ob’ektlaridan bo‘lib hisoblanadi.



Ko‘p asrlik ziyyaratgoh “Chashma buloq” yaqinida “Chilistun” masjidi, madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qal‘asi joylashgan. Qoratog‘ tizmasining janubiy yon bag‘rida “Sarmish darasi”dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Turkiston ekoturistik rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish samaraliroqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m, umumiy maydoni 21735 ga bo‘lgan “Zomin davlat qo‘riqxonasi”, maydoni 24110 ga bo‘lgan noyob tog‘-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan “Zomin milliy bog‘i” mavjud.

Qashqadaryo ekoturistik rayoni cho‘l, dasht, tog‘ oldi va tog‘li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho‘l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog‘ oldi va tog‘li hududlarga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo‘lgan, MDH davlatlari ichida yagona-“Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi”, 1992 yilda tashkil etilgan “Muborak buyurtmaxonasi”, 1992 yilda tashkil etilgan “Sechenko‘l buyurtmaxonasi” mavjud.

Surxondaryo ekoturistik rayonida Ko‘hitang tog‘li hududda 1987 yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o‘simglik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan

“Surxon davlat qo‘riqxonasi” mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o‘ziga xos rayonlaridan biri, bu erda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko‘p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. - Ўзбекистоннинг янги қонунлари. Т. 22. –Т.: Адолат, 2000. -131-140 б.
2. Пардаев А., Норчаев А.Н. Халқаро туризм. Дарслик. –Т.: ТДИУ 2010. - 320 бет.
3. www.edu.uz, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rtta Maxsus Ta‘lim vazirligi sayti
4. www.uz milliy qidiruv sayti
5. <http://www.turizm.uz>
6. <http://www.tour.uz>